XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-avgust VI-73-99-8-118-K/24 Uzun tumani

2024-yilning II-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida;

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil II-choragi davomida shakllangan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi, qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari quyidagilardan tashkil topadi:

tuman budjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;

tuman budjeti daromadlarining birinchi hisobot choragi yakuni bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq tuman budjetidan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan.

4. Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi 559,3 mln so‘mni tashkil yetganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga (qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) mablag‘ yo‘naltirish maqsadida 167,8 mln so‘m tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining joriy yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qarorining 13-bandiga rioya etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-mardagi 132-sonli qarorining 2-bandiga asosan tumanda tashkil etilgan Ayollar va Yoshlar jamg‘armasi daftarlariga

mablag‘ shakllantirish maqsadida tuman hokimining 2022-yil 14-iyuldagi 10-8-118-G‘/22-sonli farmoyishiga asosan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 35,0 mln so‘m hamda “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 35,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i xizmati xarajatlari uchun 60,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

tuman hokimligida E-qaror orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 9,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligida EDO-orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 4,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

Mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqarish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona elektron tizimdan foydalanish E-Kengash elektron tizimidan foydalanish maqsadida 9,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan vakant lavozimlar uchun tanlov e’lon qilish va HRM.Argos.uz orqali hujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun 8,0 mln so‘m mablag‘ tuman hokimligiga,

tuman hokimligining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 14.3 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida maxsus-pochta xarajatlari uchun 10,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligiga maxsus-pochtaga marka va konvert sotib olish xarajatlari uchun 4,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligi xizmat avtomashinalarini yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash uchun 30,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

tuman hokimligiga foydalanilgan tabiiy gazdan yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun 5,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining VI-45-59-8-0-K/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Uzun tuman hokimining 2023-yil 21-oktabrdagi 250-8-118-Q/123-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi yollanma xodim o‘rtasida ish xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi tuzilgan shartnomaga muvofiq mablag‘ ajratish uchun 41,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik xizmat xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuristlar malakasini oshirish markazining 2024-yil 6-mart 15-173/11-sonli xatiga asosan malaka oshirish xarajatlari uchun 2,4 mln so‘m tuman hokimligiga,

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash mahsulotlari bilan ta’minlash uchun 35,9 mln so‘m tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakatimiz yoshlari bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Yoshlar forumi yuzasidan tasdiqlangan 100-sonli bayonining 18-bandi topshirig‘iga asosan O‘zbekiston davlat San’at va Madaniyat instituti va uning filiallariga qabul qilingan (5 nafar) talabalarining o‘quv shartnoma to‘lovlarini to‘lash uchun 26,4 mln so‘m tuman hokimligiga,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevral kunidagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi

texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligiga o‘rnatilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun 25,0 mln so‘m tuman hokimligiga,

Tuman hokimining joylarda o‘tkazilgan sayyor qabullarda tuman aholilari tomonidan kelib tushgan takliflarga asosan tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlariga 1 dona Transformator sotib olish xarajatlari uchun 37,5 mln so‘m tuman hokimligiga yo‘naltirilsin,

5. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan tuman hokimining qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

6. Joriy yilning II-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

7. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Bakiyevning zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi TOSHBOYEV BURI ISHMAMATOVICH

Xalq deputatlari Uzun tumani
Kengashining
2024-yil 15-avgustdagi
VI-73-99-8-118-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024-yilning II-choragi davomida Uzun tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatkichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari

so‘m hisobida

T-r	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori, so‘mda
1	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga (qo‘shimcha manbaning 30 foizi miqdorida) mablag‘ yo‘naltirish	167 800 000
2	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 mardagi 132-sonli qarorining 2-bandidaga asocan Ayollar daftari va Yoshlar daftari jamg‘armalariga mablag‘ yo‘naltirish	35 000 000
3	Uzun tuman hokimligiga		35 000 000
4	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligida foydalanilgan internet tarmog‘i xizmatlari uchun	60 000 000
	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va YeDO-ijro orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	4 000 000

5	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va Ye-qaror orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	9 000 000
6	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tkazishning yagona yelektron tizimdan foydalanish maqsadida va Ye-Kengash orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	9 000 000
7	Uzun tuman hokimligiga	Mahalliy davlat hokimiyatlari organlari tomonidan vokand lovozimlar uchun tanlov elon qilish va HRM.Argos.uz orqali xujjatlar almashinuvi xizmatlari uchun	8 000 000
8	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun	14 250 000
9	Uzun tuman xalq ta’limi bo‘limiga	Tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida mahsus pochta xarajatlari uchun	10 000 000
10	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi tomonidan chiqarilgan xatlarni o‘z manziliga yetkazishni ta’minlash maqsadida mahsus pochtaga marka va konvert sotib olish xarajatlari uchun	4 000 000
11	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligi xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash uchun	30 000 000
12	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimligiga foydalanilgan tabiiy gazdan yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun	5 000 000

13	Uzun tuman hokimligiga	Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining VI-45-59-8-0-K/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Uzun tuman hokimining 2023 yil 21 oktabrdagi 250-8-118-Q/123-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi yollanma xodim o‘rtasida ish xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi tuzilgan shartnomaga muvofiq	41 000 000
14	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik xizmat xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuristlar malakasini oshirish markazining 2024-yil 6-mart 15-173/11-sonli xatiga asosan malaka oshirshga xarajatlari uchun	2 400 000
15	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta’minlash uchun	35 900 000
16	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25 dekabr kuni mamlakatimiz yoshlari bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Yoshlar forumi yuzasidan tasdiqlangan 100-sonli bayonining 18-bandi topshirig‘iga asosan O‘zbekiston davlat San’at va Madaniyat instituti va uning filiallariga qabul qilingan 5 nafar talabalarining o‘quv shartnoma to‘lovlari uchun	26 400 000
17	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevral kunidagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-57-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligiga o‘rnatilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash uchun	25 000 000

18	Uzun tuman hokimligiga	Tuman hokimining joylarda o‘tkazilgan sayyor qabullarda tuman aholilari tomonidan kelib tushgan takliflarga asosan tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlariga 1 dona Transformator sotib olish xarajatlari uchun	37 500 000
Jami:		**xxx**	**559 250 000**